




SOVXOZ VA KOLXOZ QURILISHI: URUSH VA URUSHDAN KEYINGI YILLARDA ROSSİYALIK MUHANDIS-TEXNIK XODIMLAR VA AGRONOMLARNING IRRIGATSIYA SOHASIDAGI ROLI (1920-1990-YILLAR)

RASULOVA MUHAYYO.

Ilmiy tadqiqotchi: DENOVA TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEKISTON TARIXI YO'NALISHI TAYANCH DOKTRANTI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17901565>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 2-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 11-dekabr 2025 yil

KEY WORDS

ABSTRACT

Ushbu maqola 1920-1990-yillarda Surxondaryo viloyatiga markazdan yuborilgan mutaxassislar siyosati va uning mahalliy kadrlar tayyorlash tizimiga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qiladi. Maqolada arxiv materiallari va statistik ma'lumotlar asosida markazdan yuborilgan mutaxassislar faoliyatining ijobiy va salbiy jihatlari, mahalliy sharoitga moslashish muammolari, mahalliy mutaxassislar tayyorlash tizimining sekin rivojlanishiga olib kelgan omillar yoritilgan. Shuningdek, bu siyosatning uzoq muddatli oqibatlari, jumladan mahalliy ilmiy-tadqiqot maktablarining shakllanishiga ta'siri, mahalliy kadrlarning rahbarlik lavozimlariga ko'tarilishidagi cheklovlar va boshqa masalalar ham tadqiq etilgan. Maqola sovet davrida Surxondaryoda kadrlar siyosati borasida olib borilgan islohotlarning xolisona baholanishiga xizmat qiladi.

Kirish. Ikkinchi jahon urushi sovet agrar tizimi, jumladan Surxon vohasi uchun keskin sinov bo'ldi. 1941-1945 yillarda viloyatdan 70 mingdan ortiq kishi, ya'ni ishga yaroqli erkaklarning asosiy qismi frontga safarbar etildi.¹⁸ Qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan 2000 dan ortiq traktordan 1200 tasi, 3500 ta avtomobildan deyarli 3000 tasi armiya ehtiyojlari uchun olib ketildi. Buning oqibatida qishloq xo'jaligidagi asosiy ishlar ayollar, keksalar va yosh bolalar zimmasiga tushdi, asosiy mehnat quroli esa yana omoch va ketmon bo'lib qoldi. Biroq, front uchun paxta, g'alla, go'sht va boshqa mahsulotlar zarurati misli ko'rilmagan darajada oshdi.

Ana shunday og'ir sharoitda Moskva O'zbekiston oldiga, jumladan Surxondaryo viloyati oldiga nafaqat rejani bajarsih, balki paxta yetishtirishni oshirish vazifasini qo'ydi. Bu vazifani bajarishda ikki omilga suyanildi: aholining fidokorona mehnati va front ortiga evakuatsiya qilingan mutaxassislarning salohiyati. Urushning dastlabki oylaridayoq RSFSR, Ukraina va Belarusdan Surxondaryoga 50 dan ortiq yirik sanoat korxonalari bilan birga minglab muhandis-texnik xodimlar, olimlar, vrachlar va malakali ishchilar oilalari bilan ko'chirib keltirildi. Ular orasida qishloq xo'jaligi sohasi mutaxassislari, ayniqsa, irrigatsiya va gidrotexnika muhandislari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular O'rta Osiyo irrigatsiya va melioratsiya ilmiy-tekshirish instituti ("SANIIRI") va "Sredazgiprovodxlopok" loyihalash tashkilotlari tarkibida faoliyat olib bordilar.

Ularning sa'y-harakatlari va nazorati ostida butun voha bo'ylab irrigatsiya va melioratsiya inshootlarini qurish bo'yicha umumxalq hasharlari boshlab yuborildi. Urushning og'ir yillarida, asosan ketmon, belkurak va zambil yordamida **Zang kanali** (45 km) va **Sherobod kanalining** birinchi bosqichlari qurib bitkazildi. O'zR MDA hujjatlarida saqlanayotgan ma'lumotga ko'ra, "Zang kanali qurilishiga Moskvadan evakuatsiya qilingan professor B. A. Shumakov ilmiy rahbarlik qildi. Loyihani amalga oshirishda muhandislar S. V. Goryunov va I. N. Belovlar boshchiligidagi 15 ming nafar hasharchi mehnat qildi".¹⁹ Bu fidokorona mehnat natijasida urush yillarida vohada 30 ming gektardan ortiq yangi sug'oriladigan yerlar o'zlashtirilib, paxta maydonlari kengaytirildi. Bu shubhasiz, kelgindi mutaxassislarning bilim va tajribasi hamda mahalliy aholining mehnati simbiozining ijobiy natijasi edi.

Ammo bu jarayonning ikkinchi, salbiy tomoni ham bor edi. Barcha ishlar "hammasi front uchun, hammasi g'alaba uchun" shiori ostida amalga oshirilgani bois, texnologik va ekologik talablarga ko'pincha ko'z yumilardi. Suv tejovchi texnologiyalarga, kollektor-drenaj tarmoqlarini qurishga e'tibor berilmadi. Natijada sug'orishdan keyin grunt suvlarining sathi ko'tarilib, vohaning eng unumdor yerlari, jumladan, Denov va Jarqo'rg'on tumanlaridagi tuproqlarning sho'rlanishi avj oldi. Shuningdek, loyihalar tuzishda mahalliy an'anaviy irrigatsiya usullari (masalan, kardon usulida sug'orish) va tajribalari mutlaqo inobatga olinmagani ham ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yilishiga sabab bo'ldi.

Urushdan keyingi o'n yillikda Surxon vohasi "buyuk qurilishlar" maydoniga aylandi. Ittifoq miqyosidagi bu loyihalarning asosiy maqsadi ingichka tolali paxta yetishtirish bo'yicha O'zbekistonni SSSRning yagona bazasiga aylantirish edi. Bu yillarda **Uchqizil** (1956) va **Janubiy Surxon** (1967) suv omborlari qurildi, Amu-Zang va Amu-Surxon mashina kanallari loyihalashtirildi. Bu gigant inshootlarning loyihalanishidan tortib qurilishigacha bo'lgan barcha jarayonlarga Moskvadagi "Gidroproyekt", "Soyuzvodproyekt" institutlarining mutaxassislari, ya'ni deyarli to'liq yevropalik kadrlar rahbarlik qildi.

MUHOKAMA

Rossiyalik mutaxassislar muhandislik-texnik vazifalarni yuksak mahorat bilan hal qilganliklarini inkor etib bo'lmaydi. Suv omborlari va mashina kanallari o'sha davrning ilg'or texnologiyalari asosida barpo etildi. Natijada yuz minglab gektar cho'l va adirlar o'zlashtirildi, viloyatda suv ta'minoti muammosi qisman hal bo'lganday bo'ldi. O'nlab yangi paxtachilik sovxozlari ("Paxtaorol", "Galaba", "Gagarin", "Termiz") tashkil etildi va ularning deyarli barcha rahbar kadrlari, direktoridan tortib bosh agronomigacha RSFSR, Ukraina, Belarusdan safarbar etildi. Ularga eng yaxshi sharoitlar yaratib berildi: shahar tipidagi posyolkalar, maktablar, kasalxonalar qurildi.

Ammo bu jarayonning ham ulkan ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik bahosi bor edi. **Birinchidan**, vohaning tabiiy ekotizimiga, Surxondaryoning suv rejimiga jiddiy zarba berildi. Orol fojiasining kichik bir modeli Surxondaryoda yuz berdi. Daryo o'zanidagi suv hajmi keskin kamayib, unga xos noyob hayvonot va o'simlik dunyosi yo'q bo'lib ketish arafasiga kelib qoldi. **Ikkinchidan**, qo'riqlarni o'zlashtirish dehqonchilik an'alaridan butunlay yiroq, majburiy "komyoshomol safarbarligi" orqali olib borildi. Vohaga respublikaning boshqa hududlaridan minglab odamlar, jumladan, Farg'ona vodiysidan va tog'li tumanlardan aholi ko'chirib keltirildi. Bu esa jiddiy ijtimoiy-demografik muammolarni keltirib chiqardi. **Uchinchidan**, loyihachilar yana ekologik oqibatlarga yetarlicha e'tibor bermadilar. Drenaj tizimining yetishmovchiligi natijasida o'zlashtirilgan yerlar 15-20 yil ichida ikkilamchi sho'rlanishga uchrab, yaroqsiz holga kela boshladi. Shu tariqa, rossiyalik muhandislarning bilimi va mehnati vohaning agrar salohiyatini oshirgan bo'lsa-da, uzoq muddatli istiqbolida hal qilib bo'lmaydigan ekologik va ijtimoiy muammolarga zamin yaratdi.

Ularning mahalliy sharoitni va an'analarni mensimasligi, "tabiatni zabt etish"ga asoslangan sovet g'oyasiga ko'r-ko'rona ergashishi bu muammolarning asosiy sabablaridan bo'ldi.

Boshqaruv tizimidagi ikki hokimiyatchilik: rossiyalik direktor/maslahatchi va milliy kadrlar orasidan chiqqan raislarning o'zaro munosabatlari va vakolatlar taqsimoti muammosi

Urushdan keyingi davrda kolxozlar va sovxozlardagi "ikki hokimiyatchilik" tizimi nafaqat saqlanib qoldi, balki yanada mustahkamlandi. Partiya qarorlarida mahalliy millat vakillarini rahbarlikka ko'proq tortish zarurligi bot-bot ta'kidlangan bo'lsa-da, amalda ularga bo'lgan ishonchsizlik va nazorat yanada kuchaydi. Bu davrda milliy rahbar (kolxoz raisi) va rossiyalik mutaxassis (MTS direktori, bosh agronom, keyinchalik tuman qishloq xo'jaligi boshqarmasi vakili) o'rtasidagi munosabatlarning tabiati bir muncha o'zgardi va yanada murakkablashdi.

Rahbarlik tandemi: Formal jihatdan kolxozda barcha qarorlar boshqaruv va umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan. Ammo partiyaning "rahbarlik roli" to'g'risidagi nizomi asosida kolxoz raisi bevosita tuman partiya qo'mitasiga (raykom) bo'ysunardi. Raykomning qishloq xo'jaligi bo'yicha kotibi esa deyarli har doim yevropalik kadr bo'lgan yoki markazdan kelgan ikkinchi kotibning qattiq nazorati ostida ish yuritgan. O'z navbatida, qishloq xo'jaligi texnologiyasiga oid barcha masalalar – qachon chigit ekish, necha marta sug'orish, qachon defoliatsiya qilishdan tortib, paxta topshirish grafiklarigacha MTS (keyinchalik "Selxoztexnika" birlashmasi) bosh mutaxassislari tomonidan belgilanardi. Viloyat arxivlaridagi yuzlab kolxoz yig'ilishlarining bayonnomalari bir xil ssenariy asosida yozilganini ko'rsatadi: birinchi bo'lib raykom vakili, keyin MTS direktori so'zga chiqib, yo'l-yo'riq va tanqidiy ko'rsatmalar berishadi. Shundan so'nggina kolxoz raisi so'z olib, "partiya va hukumatimizning dono siyosatini amalga oshirishga, ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, zimmamizga yuklatilgan sotsialistik majburiyatlarni ortig'i bilan bajarishga va'da beramiz", deb yig'ilishni yakunlaydi.²⁰

Ziddiyatlar manbalari: Ushbu ikki boshqaruvchi o'rtasidagi ziddiyatlar doimiy bo'lgan. Buni quyidagi manbalar va sabablarda ko'rish mumkin:

1. **Reja bosimi va "ko'zbo'yamachilik":** Moskvadan kelayotgan paxta rejasi yil sayin ortib borardi va ko'pincha ilmiy asoslanmagan, xo'jalikning real imkoniyatlaridan ancha yuqori bo'lardi. Rejani bajarmaslik siyosiy ayblovga (ba'zan "sabotaj") tenglashtirilardi. Shunday sharoitda milliy rais bir tomondan, shu yerdagi odamlarning ahvolini, texnika va suv yetishmasligini bilsa, ikkinchi tomondan yuqorining qattiq talabini bajarishga majbur edi. Rossiyalik vakil esa ko'pincha bu real vaziyatni tushunishni istamay, faqat rejani bajarishni qat'iy talab qilardi. Aynan shu bosim ostida qo'shib yozish, ko'zbo'yamachilik kabi illatlar paydo bo'ldi va keng yoyildi. Ko'pincha aynan raykom yoki MTS vakilining "tavsiyasi" bilan hosil ko'rsatkichlari sun'iy ravishda oshirib yozilardi.
2. **Mahalliychilik va qarindosh-urug'chilikka qarshi kurash:** Milliy rahbarlar, tabiiyki, o'zi tug'ilib-o'sgan jamiyat, urf-odatlar va qarindosh-urug'chilik rishtalari bilan chambarchas bog'liq edi. Brigadirlarni tayinlashda, moddiy ne'matlarni taqsimlashda ko'pincha qarindosh-urug'iga, qabiladoshiga yon bosish holatlari uchrab turardi. Partiya organlari va markazdan kelgan vakillar buni "mahalliychilik", "feodal-patriarxal sarqitlar" deb qoralab, bunga qarshi ayovsiz kurash olib borardi. Bu kurash bir tomondan to'g'ri bo'lsa, ikkinchi tomondan milliy rahbarning obro'sini odamlar oldida to'kishga, unga ishonchsizlik bildirishga qaratilgan siyosiy vosita ham edi.
3. **Shafag'at va shafqatsizlik:** Surxon vohasi kolxozchilarining turmush sharoiti g'oyat og'ir bo'lgan. "Mehnat kuni"ga beriladigan haq o'ta kam bo'lgani bois, ular asosan tomorqa hisobiga kun kechirgan. Milliy rais odamlarning bu holatini ko'rib turib, ko'pincha ularga

tomorqasida ishlashga, shaxsiy mollariga yem-xashak o'rishga ruxsat berardi. Rossiyalik vakil yoki partiya xodimi buni "kolxoz mulkini talon-toroj qilish", "mehnat intizomini bo'shashtirish" deb baholab, raisdan qat'iy choralar ko'rishni talab qilgan. Bu ziddiyatlar rahbarning insoniy va mansab burchi o'rtasida qiyin tanlovga duchor qilardi.

Bu "ikki hokimiyatchilik" natijasida amalda xo'jalikdagi muvaffaqiyatsizliklar uchun mas'uliyat to'liq mahalliy kadr zimmasiga yuklatiladigan tizim vujudga keldi. Agar reja bajarilsa, bu "partiyaning dono siyosati va rus og'aning yordami" natijasi deb e'lon qilinardi. Agar bajarilmasa, aybni "ishni eplay olmagan, eskilik sarqitlaridan qutulolmagan, mahalliychilikka yo'l qo'ygan" kolxoz raisiga ag'darish eng oson yo'l edi. Natijada 1960-yillarda viloyatdagi kolxoz raislarining o'rtacha ish staji 2-3 yildan oshmasdi, ularning doimiy almashinib turishi xo'jaliklar rivojiga jiddiy to'sqinlik qilardi.²¹ Natijada 1960-yillarda viloyatdagi kolxoz raislarining o'rtacha ish staji 2-3 yildan oshmasdi, ularning doimiy almashinib turishi xo'jaliklar rivojiga jiddiy to'sqinlik qilardi.²¹ Har bir yangi rais ishni o'rganib, xo'jalikni oyoqqa turg'azish o'rniga, yuqori organlar talabini bajarishga urinib, qisqa muddatda "kuyib" ishdan ketar, uning o'rniga yana boshqa bir tajribasiz, ammo "sadoqatli" nomzod qo'yilardi.

Xulosa. Sovxozlardagi vaziyat ham shundan uncha farq qilmasdi. Bu yerda direktor huquqiy jihatdan yakkaboshchi bo'lsa-da, amalda u sovxozda tashkil etilgan partiya tashkiloti kotibining qattiq nazorati ostida ish olib borar edi. Ayniqsa, milliy kadrlardan bo'lgan direktorlar uchun bu nazorat yanada qattiq bo'lgan. O'sha davrda deyarli barcha sovxozlarda partiya kotibi etib rus yoki boshqa yevropalik millat vakili tayinlanar edi. Ularning asosiy vazifasi nafaqat mafkuraviy ish olib borish, balki direktorning har bir xo'jalik qarorini nazorat qilish, uning siyosiy sadoqati borasida tuman va viloyat partiya organlariga muntazam "xabar" berib turish edi. Bu holatda milliy kadr bo'lgan direktor o'zini to'laqonli rahbar his qila olmas, doimiy bosim ostida ishlashga majbur edi. Hamkorlik faqatgina shaxslararo munosabatlar yaxshi bo'lganda, bir-birini tushunib ishlagan hollardagina mumkin edi. Biroq, tizimning o'zi aslida hamkorlikka emas, balki nazorat va bo'ysunishga asoslangani uchun bu kabi ijobiy misollar kamdan-kam uchraydi.

Foydalanilgan manbalar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi:
- 2.R-837-fond, 41-ro'yxat, 6834-ish
- 3.R-88-fond, 1-ro'yxat, 42-ish
- 4.Ўзбекистон Совет Социалистик Республикаси тарихи. 2-жилд. – Т.: Фан, 1968. – 451-б.
- 5.O'zR MDA, F-837 (O'zSSR Paxtachilik vazirligi), R-10, ish-754, v. 8.
- 6.SVDA, F-56 (Kolxozlar boshqaruvi), R-11, ish-543, v. 23-25. (Xuddi shunday mazmundagi yuzlab hujjatlarni misol keltirish mumkin).
- 7.O'zbekiston Kompartiyasi Surxondaryo viloyat qo'mitasi plenumining materiallari, 1968 yil. SVDA, F-15, R-21, ish-1321, v. 145.
- 8.Сурхандарьинская область за годы Советской власти (Статистический сборник). – Ташкент, 1970. – С. 112.